Derivation and Nominalization in Medical Terminology: A Comparative Model of Term and Process Name Formation in English and Uzbek	523
<i>Gulnigor Yazdonkulova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq buzilishlarida pedagogik-psixologik korreksiya usullari hamda mexanizmlari.....	526
<i>Jo'rayeva Muattar Abdumajit qizi</i>	
Ta'lim sifatini boshqarishga tizimli yondashish hamda pedagogikada PDCA modelining ahamiyati	530
<i>Jumanazarova Gulloila Yoqubjanovna, Xolmatova Maftuna Turdimat qizi</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalarining kimyo ta'limidagi o'rni.....	535
<i>Jumaniyazova Mahliyo Qahramonovna</i>	
Inklyuziv maktab sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-perseptiv tajribani shakllantirish ...	539
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna</i>	
Sirdaryo viloyati toponimlarining shakllanish jarayonlari	543
<i>Kenjayeva Iroda Alisherovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda art texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari.....	546
<i>Mamatova Husnora Eshquvatovna</i>	
O'quvchi yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish va uni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash	550
<i>Mehmonova Nilufar Shuhratovna</i>	
Integrating Social-Emotional Learning in EFL Classrooms: Enhancing Language Proficiency and Emotional Intelligence.....	553
<i>Meylinorova Feruza Bakhtiyor kizi</i>	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilarining malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish	559
<i>Muminova Nargiza Sabitdjanovna</i>	
TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi	562
<i>Murodova Sarvigul Raxim qizi</i>	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirishning funksional modeli	566
<i>Norboyeva Moxigul Shavkat qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish	569
<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfida o'qitiladigan "Tabiiy fanlar"dan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	574
<i>Qo'qonboyeva Shaxlo Rafikjonovna</i>	
The Intersection of Science and Pedagogy: The Teacher's Role in Professional Evolution	580
<i>Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Shukurova Madina</i>	
Maktabgacha katta guruhlarida STEAM texnologiyasi bilan tanishtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	583
<i>Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	586
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Kurashchilarda muvozanat (balance) va ko'tarib uloqtirish texnikasi o'rtasidagi bog'liqlik	590
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
O'qituvchi shaxsining o'zini o'zi rivojlantirishida akmeologik pozitsiyaning o'rni.....	594
<i>Xaitov Abdukosim Abdulakim o'g'li</i>	
Lego-qurilish, konstruksiyalash, robototexnika – STEAM ta'lim moduli sifatida	596
<i>Xamroyeva Sitora Samadovna</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	599
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	



Maktabgacha ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'limiy o'yinlarni loyihalash va joriy etish	602
<i>Xikmatova Moxinur Amir qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish usullari	605
<i>Xolmo'minova Mohichehra Bahrom qizi</i>	
O'quvchilarning biologiyaga qiziqishini oshirishda innovatsion ta'lim metodlari	609
<i>Xudayberganova Madina Saotboy qizi, Abdiqodirov Murodxo'ja Alisher o'g'li, Nishanbayeva Arayim User qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi voleybolchi qizlarning musobaqa oldi jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	612
<i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>	
Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari	618
<i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>	
Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi	621
<i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>	
Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati	625
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>	
Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан	628
<i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>	
Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста	631
<i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>	
Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	
Zamonaviy ta'lim muhitida tarbiya tizimini takomillashtirishda interaktiv metodlarning o'rni	637
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna, Baymurotova Madina Baxodir qizi</i>	
Methodological Support of the Process of Developing Preschoolers' Cognitive Skills Through TRIZ (TIPS) in a Technology-Enhanced Learning Environment	641
<i>Gauxar Djanpeisova, Veronika Gorbunova</i>	
Innovative Approaches to Early Mathematics Education and Development in Preschool Children	646
<i>Gauxar Djanpeisova, Shaxodat Berdiyeva</i>	
Ta'lim jarayonida intensiv texnologiyalar asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi	650
<i>Radjabova Mohigul Alisherovna</i>	
O'quv jarayonida ongli mushohada ko'nikmasini rivojlantirishda savol-javob usulidan foydalanish asoslari	653
<i>Ro'zimetova Intizor Alimovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari yozuv malakalarini shakllantirishning psixolingvistik tasnifi	656
<i>Axmadaliyev Murodjon Ulug'bek o'g'li, Xojimatova Shoxsanam Erkinjon qizi</i>	
Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'qituvchi kompetensiyasiga ta'siri	659
<i>Azamatova Rayhona Bahromjon qizi</i>	
13-14 yoshli o'quvchilarda harakatli o'yinlar va zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiya qilishning pedagogik asoslari	662
<i>Babayev Anvarjon Axmedovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish (nazariya, amaliyot va natijalar) ...	666
<i>Berdiyev G'ayrat Ulaboyevich, A. N. Sadatova</i>	
Elektron portfoliolar asosida individual rivojlanishni monitoring qilishning diagnostik modeli	670
<i>Kopbayeva Baxtigul Ziyadadinovna</i>	
Pedagogik atamalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati	674
<i>Islomov Nurtoy Nomoz o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning axloqiy-ta'limiy qarashlari	678
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Turg'unov Dostonbek Rustamjon o'g'li</i>	

Talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	682
<i>Ziyotov Farrux Saodilla o'g'li</i>	
Nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda sun'iy intellektning ahamiyati	686
<i>Ermonov Sherzod Ibrayim o'g'li</i>	
Kreativ yondashuv asosida bo'lajak muhandislarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari	690
<i>Ibragimova Aziza Avaz qizi</i>	
Oliy ta'limda dual ta'lim va malakaviy amaliyotni takomillashtirish ("musiqqa ta'limi" misolida)	694
<i>Raximov Nurillo Narzullayevich</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa san'atining shaxs ma'naviy-estetik tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati	698
<i>Sattarov Alisher Alikul o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda multimediali mantiqiy masalalar orqali o'quv jarayonini faollashtirish	702
<i>Jamoldinova Dildora Alijon qizi</i>	
Ta'lim markazlarida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasi	706
<i>Buriyeva Xumoraxon O'lmasboy qizi</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	710
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
AI-грамотность будущих педагогов: компоненты, вызовы и педагогические стратегии этической интеграции искусственного интеллекта	713
<i>Наркабилова Г. П.</i>	
Роль психолого-педагогических факторов в формировании нравственного поведения дошкольников	718
<i>Рахматходжаева Ф. М.</i>	
Внедрение инновационных технологий в дошкольно-образовательном учреждении	721
<i>Садикова Шоиста Акбаровна</i>	
Para stol tennisi sportchilarida jismoniy tayyorgarlikni oshirish samaradorligi	726
<i>X. A. Usmonova</i>	
Systematic Approach to the Issues of Educational Calculation in General Secondary Schools	729
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna</i>	
Роль системного профессионального развития в формировании компетентности учителей английского языка: международные тенденции и практика Узбекистана	733
<i>Жамолитдинова Нилуфар Акрамжоновна</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish usullari	738
<i>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna, Saidmudova Maftuna Alisher qizi, Hafizova Oydinoy Doniyor qizi, Xujamkulova Maqsuda Ruzikulovna</i>	
Ingliz tili darslarida Kahoot o'quv platformasidan samarali foydalanish	743
<i>Amankulov Shavkat Qudratovich</i>	
Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasi	747
<i>Musratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога – ключ к эффективному взаимодействию с учащимися	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	



Voleybolda holat va harakatlanish, yuqoridan va pastdan to'p uzatish texnikasi	772
<i>Sulaymonov Jaxongir Solijonovich</i>	
Методика формирования экологической культуры учащихся в процессе спортивного туризма	775
<i>Абдурахманов Отахон Рустамович</i>	
Методы преобразования и обработки текстовых задач в преподавании математики в начальных классах.....	780
<i>Азамкулов Ахтамкул</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida kreativ-tanqidiy fikrlash va muammoli ta'lim texnologiyalari integratsiyasining didaktik imkoniyatlari.....	787
<i>Jumayeva Muxlisa Shokir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvning roli va ahamiyati .	793
<i>Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida jadid pedagogik merosidan foydalanish usullari	796
<i>Yusupova Madinajon Mansurbek qizi</i>	
Актуальность внедрения педагогики сотрудничества в современный учебный процесс на занятиях русского языка в группах с нерусским языком обучения.....	799
<i>Заболотина Анна Анатольевна</i>	

BOSHLANG'ICH SINIF TARBIYA DARSLARIDA JADID PEDAGOGIK MEROSIDAN FOYDALANISH USULLARI

Yusupova Madinajon Mansurbek qizi

Urganch RANCH texnologiya universiteti

Pedagogika mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yetuk namoyandalarining pedagogik qarashlarining boshlang'ich sinf tarbiya darslaridagi o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Jadidlarning ta'lim-tarbiya borasidagi ilg'or g'oyalari hamda ularni zamonaviy tarbiya darslariga integratsiya qilish usullari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda jadid merosidan foydalanishning samarali yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: jadid pedagogikasi; tarbiya darslari; boshlang'ich sinf; milliy tarbiya; pedagogik meros.

Abstract: This article reveals the role and significance of the pedagogical views of prominent representatives of the Jadid movement in primary school education. It highlights the progressive ideas of the Jadids in education and upbringing, as well as methods of integrating them into modern educational lessons. The paper also demonstrates effective ways of using the Jadid heritage to foster students' spiritual and moral qualities.

Key words: Jadid pedagogy; educational lessons; primary school; national education; pedagogical heritage.

Аннотация: В данной статье раскрываются роль и значение педагогических взглядов выдающихся представителей джадидского движения в начальном школьном образовании. Освещаются прогрессивные идеи джадидов в сфере образования и воспитания, а также методы их интеграции в современные учебно-воспитательные занятия. Показаны эффективные способы использования наследия джадидов в формировании духовно-нравственных качеств учащихся.

Ключевые слова: педагогика джадидов; учебные занятия; начальная школа; национальное воспитание; педагогическое наследие.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida barkamol avlodni tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichi o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois tarbiya darslarini mazmunan boyitish, milliy va ma'naviy qadriyatlarga tayangan holda tashkil etish dolzarb masala sanaladi. Bu borada jadid pedagoglarining boy pedagogik merosi muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Ona Vatanimizni yuksak madaniyat va ma'naviyatga ega bo'lgan, erkin va baxtli insonlar yashaydigan mamlakatga aylantirish maqsadida "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi va uni amaliyotga tatbiq etish milliy dasturini ishlab chiqish zarurligini o'z ma'ruzalarida ta'kidlab o'tganlar. Ushbu konsepsiyadan kutilayotgan yo'nalish va usullar yoshlarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida kamol toptirish hamda shu orqali jamiyatning madaniy va ma'rifiy yuksalishiga erishish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, jamiyat a'zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi hamda dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Yangi O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol shaxs qilib tarbiyalash har bir insonning burchi ekanligini unutmashimiz lozim.

Jadidchilik harakati vakillari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Ismoil G'aspirali va boshqalar ta'lim va tarbiyani jamiyat taraqqiyotining asosi deb bilganlar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jadid pedagogik merosining tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Jadid pedagoglarining asarlarida yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ilmga intilish, axloqiy poklik ruhida tarbiyalash g'oyalari yetakchi o'rin tutadi. Xususan, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari axloqiy tarbiya masalalariga



bag'ishlangan bo'lib, unda bolaning shaxsiy kamoloti, odob-axloqi va jamiyatdagi o'rni keng yoritilgan. Asarda jami 48 ta xulq-atvor sharhlanadi: 24 tasi ijobiy fazilatlar, qolgan 24 tasi esa salbiy, ya'ni yomon xulqlar haqidagi fikrlardan iborat. Avloniy mazkur sifatlarni teng miqdorda bayon etish orqali olamda yaxshilik va yomonlik muvozanatda bo'lishi, agar ulardan loaqal bittasi ustunlikka ega bo'lsa, muvozanat buzilishini nazarda tutgan. Asarda muallif nasriy bayon bilan birga she'rlar, hikoyalar va pand-nasihatlarini ham keltirgan bo'lib, asar tili sodda, xalqchil va o'quvchiga bevosita, to'g'ridan to'g'ri yetib boradigan tarzda bayon etilgan.

Jadidlarning pedagogik ruhdagi o'lmas asarlari o'zbek pedagogikasi va ma'rifatparvarlik tarixida muhim o'rin tutadi. Ular ochgan jadid maktablarida qisqa muddat ichida o'quvchilar savodli bo'lib yetishib chiqqanlar. Ushbu g'oyalar bugungi tarbiya darslari mazmuni bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni dars jarayoniga moslashtirib qo'llash yuqori samaradorlik beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinflarda tarbiya darslarini tashkil etishda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda metodik yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, 1-sinf uchun mo'ljallangan **“Salomlashish odobi”** mavzusidagi metodik dars ishlanmasida darsning asosiy maqsadi o'quvchilarga salomlashishning ijtimoiy va axloqiy ahamiyatini tushuntirish, kattalarga hamda tengdoshlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat bo'ladi. Ushbu dars natijasida o'quvchilar salomlashish qoidalarini bilishi va kundalik hayotda ulardan foydalanishi kutiladi. Dars jarayonida suhbat, rol o'ynash va ko'rgazmali metodlardan foydalanilib, rasmlar va kartochkalar asosiy jihoz sifatida qo'llanadi. Darsning borishida avval tashkiliy qismda o'quvchilar bilan samimiy salomlashiladi, so'ngra kirish qismida salomlashish tushunchasi va kimlar bilan salomlashish lozimligi yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. Asosiy qismda o'qituvchi salomlashish haqida qisqa hikoya aytib beradi va “Do'konda”, “Maktabda” kabi rolli o'yinlar tashkil etiladi. Mustahkamlash bosqichida rasmlar asosida to'g'ri salomlashish usullari aniqlanadi, yakuniy qismda esa xulosa chiqarilib, o'quvchilar rag'batlantiriladi.

2-sinf uchun ishlab chiqilgan **“Do'stlik va mehr-oqibat”** mavzusidagi metodik dars ishlanmasi o'quvchilarda do'stlik tushunchasini shakllantirish, mehr-oqibatli bo'lishga o'rgatishga qaratilgan bo'lib, natijada o'quvchilar do'stlik belgilarini anglaydi va jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlanadi. Darsda guruh bilan ishlash, munozara va “aqliy hujum” metodlari qo'llanadi, rangli qog'oz va flomasterlar yordamchi vosita sifatida foydalaniladi. Dars jarayonida kirish qismida “Do'st deganda nimani tushunasiz?” savoli muhokama qilinadi, asosiy qismda “Ahmad va uning do'sti” nomli hikoya o'qilib, guruhlar do'stlik qoidalarini shakllantiradi, mustahkamlash bosqichida esa “Yaxshi do'st qanday bo'ladi?” mavzusida klaster tuziladi. Yakunda xulosa chiqarilib, baholash amalga oshiriladi.

3-sinf uchun mo'ljallangan **“Oila – muqaddas maskan”** mavzusidagi dars ishlanmasi o'quvchilarga oila qadriyatlarini haqida tushuncha berish, ota-ona va yaqinlarga hurmat tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qiladi. Dars natijasida o'quvchilar oila a'zolarining vazifalarini bilishi va oilaga nisbatan mas'uliyat hissi kuchayishi kutiladi. Munozara, taqdimot va mustaqil fikrlash metodlari asosida tashkil etilgan darsda slaydlar va oila rasmlaridan foydalaniladi. Dars davomida kirish qismida “Oila siz uchun nimani anglatadi?” savoli muhokama qilinadi, asosiy qismda oila haqidagi maqollar tahlil qilinib, o'quvchilar o'z oilasi haqida qisqa taqdimotlar qiladi, mustahkamlash bosqichida savol-javob o'tkaziladi va yakunda baholash amalga oshiriladi.

4-sinf uchun ishlab chiqilgan **“Vatanparvarlik – oliy burch”** mavzusidagi metodik dars ishlanmasi o'quvchilarda Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish va fuqarolik mas'uliyatini anglashga yo'naltirilgan. Dars natijasida o'quvchilar vatanparvarlik tushunchasini izohlash va jamiyatda faol bo'lishga intilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kutiladi. Munozara, “Insert” metodi va mustaqil ishlar asosida olib boriladigan darsda davlat ramzlari va videoroliklardan foydalaniladi. Darsning kirish qismida davlat madhiyasidan parcha tinglanadi, asosiy qismda Vatan haqidagi matn ustida ishlanib, insert jadvali tuziladi, mustahkamlash bosqichida esa “Men Vatanim uchun nima qila olaman?” mavzusida fikrlar bildiriladi va yakunda xulosa chiqarilib, baholash o'tkaziladi.

Jadid asarlaridan parchalar asosida suhbat. Tarbiya darslarida jadid pedagoglarining asarlaridan qisqa, yoshga mos parchalar tanlab olinib, suhbat metodi orqali o'quvchilarga tushuntiriladi. Ushbu usul bolalarda mustaqil fikrlash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Hayotiy misollar va rolli o'yinlar. Jadid asarlarida keltirilgan axloqiy holatlar asosida rolli o'yinlar tashkil etish o'quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Bu usul, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun samarali hisoblanadi.

Integratsiyalashgan darslar. Tarbiya darslarini ona tili va o'qish savodxonligi fanlari bilan integratsiya qilish orqali jadid merosini kompleks tarzda o'rganish mumkin. Masalan, Avloniy hikoyalarini o'qish va ularning mazmunini tarbiyaviy jihatdan tahlil qilish.

Ko'rgazmali vositalardan foydalanish. Jadid pedagoglarining hayoti va faoliyatiga oid rasmlar, slaydlar hamda videoroliklar yordamida darsni jonlantirish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.



XULOSA

Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida jadid pedagogik merosidan foydalanish o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jadid pedagoglarining ilg'or g'oyalari zamonaviy tarbiya maqsadlari bilan uyg'un bo'lib, ularni dars jarayoniga tatbiq etish orqali milliy ong, vatanparvarlik va insoniy fazilatlarini shakllantirish mumkin. Shu sababli jadid merosidan samarali foydalanish bugungi pedagoglarning muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Avloniy A. Milliy tarbiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
4. Munavvarqori Abdurashidxonov. Tanlangan pedagogik asarlar. – Toshkent: Fan, 2006.
5. Fitrat A. Saylanma asarlar. – Toshkent: Sharq, 2000.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasiga oid ma'ruzalari. – Toshkent, 2020.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5085887>
8. Jo'rayev R.H., Ziyomammedov B. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
9. Hasanov S. Jadidchilik harakati va pedagogik qarashlar. – Toshkent: Fan, 2014.
10. Qodirov B. Boshlang'ich ta'limda tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
11. Sharipov S. Milliy pedagogika va tarbiya nazariyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
12. Xudoyberdiyev E. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash. – Toshkent: Fan, 2019.
13. Usmonov N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsiya, 2020.
14. Abduqodirov A.A. Pedagogik meros va zamonaviy ta'lim. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.